

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARI HISOBI VA AUDITI.

Nartoshev Ozodbek Vohid o'g'li

Samarqand davlat iqtisodiyot va servis instituti, Buxgalteriya hisobi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Misirov Asliddin Mamasoliyevich

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: Ushbu maqolada eksport va import operatsiyalarining mazmuni, ularni tashkil etadigan hodisalar va buxgalteriya hisobiga ta'siri haqida yoritilgan. Ularning tashqi iqtisodiy siyosatdagi ahamiyati, valyuta operatsiyalari batafsil ko'rib chiqiladi. Eksport-import operatsiyalarini audit qilish jarayonidagi kurs farqlari, tovar bahosi kabilarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: eksport, import, globallashuv, audit, taraqqiyot, valyuta, ichki va tashqi savdo, litsenziya moliyaviy shaffoflik, qiymat, bozor, tovar, ishlab chiqarish, iqtisodiyot

Globallashuv sharoitida eksport va import operatsiyalari har qanday davlat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi misolida, uning tashqi savdo aylanmasi mamlakatning iqtisodiy salohiyati, valyuta daromadlari, ichki ishlab chiqarish va global bozor integratsiyasida muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining mazmuni jihatidan avvalgi bosqichlardan katta farq qiladi. Asosiy sababi milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Bu jarayon bugungi kunda xalqaro maydondagi Raqobatni keskinlashtiradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'zining "barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi –raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi...

Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Aholi daromadlarini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun bizga yangi-yangi bozorlar kerak. Uning uchun bozor iqtisodiyoti va davr talablariga mos ko'plab qonun va qarorlarni qabul qilyapmiz" kabi fikrlarini keltirib o'tadi.

Tashqi savdo balansining salbiy shakllanishiga sabab importning eksportdan yuqori bo'lishi hisoblanadi. Eksport va import operatsiyalarini hisobga olish buxgalteriya hisobining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda quyidagi hujjatlar asosiy rol o'ynaydi:

- 1.kontrakt (tashqi savdo shartnomasi)
- 2.invoys (hisob-faktura)



3.bojxona deklaratsiyasi

4.transport hujjatlari

5.to'lov hujjatlari

Eksport operatsiyalarida daromad odatda tovar xaridorga yetkazilgandan va mulk huquqi o'tgandan so'ng tan olinadi. Import operatsiyalarida esa tovarlarning bojxona qiymati, bojxona to'lovlari va transport xarajatlari hisobga olinadi. Auditingning ushbu sohada o'ziga

xosligi shundaki, u moliyaviy audit bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy, bojxona va valyuta jihatlarini ham gamrab oladi. Eksport-import amaliyotlarining shaffofligi, ishonchiligi va qonunchilik talablariga mosligi mamlakatning xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytiradi, korxonalar uchun esa barqaror moliyaviy boshqaruv va tizimli hisobot yuritish imkonini yaratadi.

Audit jarayonida quyidagi jihatlar tekshiriladi:

a) tashqi savdo shartnomalarining qonuniyligi

b) tovarlarning haqiqiy eksport yoki import qilinganligi

c) valyuta tushumlarining to'g'ri hisobga olinganligi

d) bojxona to'lovlari va soliqlarning to'g'ri hisoblanganligi

Masalan, auditor eksport operatsiyalarida korxonalar hisobida ko'rsatilgan daromadni bojxona deklaratsiyasi va bank hujjatlari bilan solishtiradi. Agar hujjatlar mos kelmasa, bu moliyaviy xatolik yoki qonunbuzarlik bo'lishi mumkin.

Eksport-import operatsiyalari buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni eksport-import operatsiyalariga oid to'lig va ishonchli moliyaviy hamda buxgalteriya axboroti bilan o'z vaqtida ta'minlashdan iborat.

Ozodbek: Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditori O'zbekistonning tashqi savdo tizimini samarali boshqarish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va xalqaro bozorlarda barqaror ishtirok etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tashqi savdo aylanmasining yildan-yilga ortib borishi, savdo hamkorlari geografiasining kengayishi hamda valyuta operatsiyalarining murakkablashuvi ushbu jarayonlarda hisob-kitobning aniq yuritilishi va auditor nazoratining kuchaytirilishini talab etadi.

Eksport va import bo'yicha hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi, bojxona talablariga rioya etilishi, valyuta operatsiyalarining qonuniyligi, hamda korxonalarining ichki nazorat tizimlarining samaradorligi tashqi iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, auditor jarayonlarining sifatli amalga oshirilishi moliyaviy xatoliklar va qonunbuzarliklarning oldini oladi, korxonalar va davlat organlari o'rtasida ishonchli axborot almashinuvi shakllanishiga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2020 yil 24 fevral;
2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni, Yangi taxriri. 2016 yil 13 aprel;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2020 yildagi PQ-4707. son "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"
4. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni, Yangi taxriri. 2016 yil 13 aprel;

